ISSN:2828-6235
Impact factor:13.77

International Journal of Literature and Language Studies(IJLLS)

TARJIMADA MATN TURLARINING QIYOSIY TAHLILI VA FUNKSIONAL-PRAGMATIK MODEL

Allabergenova Intizor Kadamovna
Highly Qualified English Language Teacher,
Ogahiy Creative School in Khiva City,
Khorezm Region Master's Student (second year) Urgench State
Pedagogical Institute Department of English
Email: intizorallabergenova720@mail.com
+998974231500
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.24107766

Annotatsiya. Maqolada badiiy, ilmiy, publitsistik va rasmiy matnlarga oid yettita inglizça va özbekça birlik hamda ularning tarjimalari qiyosiy va funksional-pragmatik usullarda tahlil qilindi. Misollarda badiiy matn uçun hissiy ohang, ilmiy matn uçun termin aniqligi, publitsistik matn uçun madaniy mazmunning tuşunarliligi, rasmiy matn uçun kontekstga mos huquqiy ma'no ustuvor ekani körsatildi. Matn tahlili, strategiya tanlaş va tahrirni boğlovçi yetti bosqiçli model bayon qilindi. Model nomuvofiqlik aniqlanganda tegişli tarjima qaroriga qaytişni nazarda tutadi.
Kalit sözlar. matn tipologiyasi, tarjima strategiyasi, funksional-pragmatik tahlil, tarjima transformatsiyasi, ekvivalentlik, tarjima sifati.

СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ТИПОВ ТЕКСТА В ПЕРЕВОДЕ И ФУНКЦИОНАЛЬНО-ПРАГМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ

Аннотация. В статье сопоставительным и функционально-прагматическим методами анализируются семь английских и узбекских единиц и их переводы. В художественных примерах приоритет отдан эмоциональной тональности, в научных — точности терминов, в публицистических — доступности культурного содержания, в официальных — передаче юридического значения с учётом контекста. Представлена семиэтапная модель, связывающая анализ текста, выбор стратегии и редактирование. При обнаружении несоответствия модель предусматривает возвращение к соответствующему переводческому решению.
Ключевые слова. типология текста, стратегия перевода, функционально-прагматический анализ, переводческая трансформация, эквивалентность, качество перевода.

COMPARATIVE ANALYSIS OF TEXT TYPES IN TRANSLATION AND A FUNCTIONAL-PRAGMATIC MODEL

Abstract. This article uses comparative and functional-pragmatic analysis to examine seven English and Uzbek units and their translations. The literary examples prioritize emotional tone, the scientific examples terminological precision, the journalistic examples accessibility of culture-specific meaning, and the official examples legal meaning in context. The article presents a seven-stage model that links text analysis, strategy selection, and revision. When a mismatch is found, the model directs the translator back to the relevant decision.
Keywords. text typology, translation strategy, functional-pragmatic analysis, translation shift, equivalence, translation quality.

KIRIŞ

Bir iboraning tarjimasi alohida öqilganda tabiiy eşitilişi, ammo matn içida öz vazifasini yöqotişi mumkin. Masalan, safarga otlangan kişiga aytilgan “Oq yöl” bilan şu iboraning badiiy asar sarlavhasida kelişi tarjimondan ikki xil qaror talab qiladi. Birinçi vaziyatda xayrlaşuv va ezgu tilakni yetkaziş muhim. Ikkinçi vaziyatda esa yöl obrazi asar davomida qanday ma’no kasb etişini ham tekşiriş kerak. Tarjima variantini baholaş uçun iboraning luğaviy ma’nosi bilan birga uning matnda nima vazifa bajarayotganini aniqlaş lozim.

K. Reiss matn tipologiyasida axborot yetkaziş, muallifning estetik ifodasini namoyon etiş va adresatga ta’sir körsatişni informativ, ekspressiv va operativ turlar orqali farqlaydi [1]. Bu tasnif tarjimonning e’tiborini matnning ustuvor vazifasiga qaratadi. Masalan, ilmiy tuşunçani aniq ifodalaş uçun tanlangan yeçim badiiy obrazni qayta yaratişga mos kelmasligi mumkin. Şu bilan birga, bitta matnda bir neça vazifa qatnaşadi. Publitsistik maqola faktni ma’lum qiladi va öquvçini muallif pozitsiyasiga işontirişga urinadi. Bu ikki vazifa tarjimada birgalikda hisobga olinadi. H. J. Vermeer tarjima maqsadi va topşiriğini tarjimon qaroriga ta’sir qiladigan omillar sifatida köradi [2]. Ch. Nord esa tarjimaga yönaltirilgan matn tahlilida muallif, adresat, aloqa kanali va matn içidagi til vositalarini birga körib çiqadi [3]. Uşbu ikki qaraşdan amaliy savol kelib çiqadi. Bir xil asl matn mutaxassisga va keng jamoatçilikka möljallansa, tarjimada qaysi ma’lumot öz holiça saqlanadi va qaysi öringa izoh kerak böladi? Adresat özgarsa, izoh darajasi özgarişi mumkin, ammo ilmiy tuşunça yoki dalilning mazmuni saqlanadi. P. Newmarkning semantik va kommunikativ tarjima haqidagi qaraşlari asliyat ifodasiga yaqinlik bilan tarjima matnining öquvçiga tuşunarliligi örtasidagi nisbatni tahlil qilişga yordam beradi [4]. J. House sifat bahosida matn funksiyasi, registr va kommunikativ muhitni qiyoslaydi [5]. Q. Musayevning özbek tarjimaşunosligidagi işlari esa şakl va mazmun birligini boşqa til vositalari bilan qayta yaratiş masalasini yoritadi [6]. Uşbu manbalar maqolada uçta qarorni izohlaş uçun qöllanadi. Birinçisi matnning boş vazifasini aniqlaş, ikkinçisi tarjimada saqlanadigan xususiyatni belgilaş, uçinçisi tanlangan yeçimning matnga mosligini tekşirişdir.

Maqolaning maqsadi badiiy, ilmiy, publitsistik va rasmiy matnlarga oid tarjima misollarini qiyoslaş hamda aniqlangan ustuvorliklarni yetti bosqiçli funksional-pragmatik model bilan boğlaşdir. Asosiy savol şundan iboratki, tarjimada qaysi xususiyatni saqlaş zarurligi aniqlangaç, bu xulosa muqobil tanlaş va matnni tahrir qilişga qanday tatbiq etiladi?

MATERIAL VA METODLAR

Tahlil materiali “Tarjimada matn turlarining qiyosiy tahlili” dissertatsiyasining ikkinçi bobidan olindi. Dissertatsiyaning 2.2-bölimidagi jadvaldan törtta matn turiga oid yettita birlik tanlandi. Badiiy matnga oid ikki, ilmiy matnga oid ikki, publitsistik matnga oid ikki va rasmiy matnga oid bitta misol örganildi. Misollar özbekçadan inglizçaga hamda inglizçadan özbekçaga berilgan tavsiya variantlaridir. Tahlil birligi ibora, realiya yoki termin va uning tarjima muqobilidan iborat [7, 2.2-bölim]. Qiyosiy tahlilda avval asl birlik va tarjima variantidagi umumiy ma’no ajratildi. Keyin variantda qaysi ma’no unsuri saqlangani, qaysi biri izohlangani yoki susaygani belgilandi. Funksional-pragmatik tahlilda şu özgarişning matn vazifasi va adresat uçun oqibati körib çiqildi. Masalan, izohli tarjimada qöşilgan söz tuşunçani aniqlaştirişi mumkin. Biroq öşa izoh badiiy dialog içida berilsa, personaj nutqining tabiiy oqimiga ta’sir qilişi ehtimoli bor. Har bir misol uç savol asosida baholandi. Tarjimada qaysi ma’no yoki vazifa saqlanişi zarur? Tavsiya variantida bu vazifa qanday til vositasi bilan ifodalangan? Variantni qöllaş uçun yana qanday kontekst kerak? Modelni bayon qilişda dissertatsiyaning matn diagnostikasi, strategiya tanlaş va xatolarni tuzatişga oid bölimlari birgalikda öqildi [7, 3.1–3.3-bölimlar]. Tadqiqot tavsifiy va sifat tahliliga tayangan. Tarjimalarning mosligi berilgan misollar doirasida asoslandi, auditoriya reaksiyasini ölçaş va baholovçilararo moslikni hisoblaş keyingi tekşiruv masalasi bölib qoladi.

NATIJALAR

Yettita misol qiyoslanganda uç xil yeçim ajralib çiqdi. Ayrim birliklar uçun maqsad tilida tabiiy muqobil tanlangan, ayrimlari qöşimça izoh bilan berilgan, terminlar esa soha va qöllaniş doirasiga qarab aniqlaştirilgan. 1-jadvalda har bir variantni baholaşda e'tibor qaratilgan xususiyat körsatilgan.

1-jadval. Matn turlariga oid birliklar va tarjimada saqlanadigan xususiyat

Matn turi va asliyat	Tavsiya etilgan tarjima	Tahlil mezoni
Badiiy: oq yöl	Have a safe journey	Safar oldidagi tilak
Badiiy: köngli toğdek kötarildi	His spirits were lifted	Hissiy özgariş va obraz
Ilmiy: machine learning	maşinali öqitiş	Termin izçilligi
Ilmiy: peer review	mustaqil ekspertlar tomonidan ilmiy taqrizdan ötkaziş jarayoni	Tuşunçani izohlaş
Publitsistik: mahalla	mahalla (local self-governing community)	Mahalliy tuşunçani tanitiş
Publitsistik: soft power	madaniy va siyosiy ta'sir vositalari	Ta'sir turini oçib beriş
Rasmiy: privacy	şaxsiy hayot daxlsizligi	Huquqiy ma'no va kontekst

Manba. Dissertatsiyadagi tarjima misollari asosida tuzildi [7, 2.2-bölim].

Badiiy misollarda ikki xil vazifa kuzatildi. "Oq yöl" safar oldidan aytilgan tilak bölsa, "Have a safe journey" şu nutqiy harakatni ingliz tilida tabiiy ifodalaydi. "Köngli toğdek kötarildi" birligidagi hissiy özgariş "His spirits were lifted" orqali beriladi. Bu variantda qahramonning kayfiyati yaxşilangani anglaşiladi, toğ obrazi esa yöqoladi. Mazkur obraz matnda takrorlansa yoki qahramon tasvirining bir qismi bölsa, tarjimon uni şu örinda saqlaş yoki matnning boşqa joyida badiiy vosita bilan qoplaş imkonini baholaydi [7, 2.2-bölim]. Ilmiy misollarda qisqa muqobil bilan izohli variantning vazifasi farq qildi. "Machine learning" uçun dissertatsiyada "maşinali öqitiş" muqobili keltirilgan. Tanlangan muqobil ilmiy matn davomida bir tuşunçaga izçil boğlanişi lozim. "Peer review" uçun berilgan kengaytirilgan variant jarayon mazmunini ilk uçraşuvda oçib beradi. Keyingi örinlarda "ilmiy taqriz" kabi ixçam şaklni qöllaş mumkin, agar u aynan şu jarayonni anglatişi kontekstdan ravşan bölsa. Tarjimadagi "mustaqil" belgisi ham taqriz tartibi haqidagi matn yoki hujjat mazmuniga qarab tekşiriladi [7, 2.2-bölim].

Publitsistik misolda "mahalla" atamasi inglizça izoh bilan birga berilgan. Bu variant asl nomni saqlaydi va xorijiy öquvçiga tuşunçaning özini özi boşqarişga oid jihatini anglatadi. Atama muayyan joy, aholi jamoasi yoki institutga işora qilayotganini maqola konteksti belgilaydi. "Soft power" uçun keltirilgan "madaniy va siyosiy ta'sir vositalari" varianti muayyan matnda izoh vazifasini bajarişi mumkin. Biroq ta'sirning joziba va jalb etiş orqali yuzaga kelişi muhokama qilinsa, "yumşoq kuç" atamasini saqlab, uning mazmunini qisqa oçiş tuşunça çegarasini aniqroq körsatadi [7, 2.2-bölim]. Rasmiy matnga oid "privacy" misolida kontekst hal qiluvçi ahamiyatga ega. "Şaxsiy hayot daxlsizligi" varianti gap şaxsiy hayotga oid huquq haqida ketganda mos keladi. Hujjatdagi atama ma'lumotlarni qayta işlaş tartibi yoki axborotni oşkor etmaslik şartiga boğliq bölsa, tarjimon hujjatning ta'rifi va boşqa bandlaridagi qöllanişni soliştiradi. Mazkur misol rasmiy matnda termin bilan birga uning amal qiliş doirasini tekşiriş zarurligini körsatadi [7, 2.2 va 3.3-bölimlar].

Bosqiçli funksional-pragmatik tarjima modeli

Dissertatsiyada taklif qilingan model tarjima topşiriğidan yakuniy tahrirgaça bölgan qarorlarni bir tartibga keltiradi. Matnni dastlabki tahlil qilişda kommunikativ maqsad, yetakçi funksiya, til va uslub belgilari, adresat hamda madaniy yuklama qayd etiladi. Şu tavsif asosida tarjimada saqlanişi zarur xususiyatlar, ya'ni invariantlar belgilanadi. Masalan, ilmiy matnda

tuşunça va sabab-oqibat boğlanişi, badiiy matnda muallif ovozi yoki takrorlanadigan obraz invariant bölişi mumkin [7, 3.1–3.2-bölimlar].

1. Tarjima topşiriğini aniqlaştiriş. Tarjima kim uçun tayyorlanişi, qayerda qöllanişi va undan qanday natija kutilişi belgilanadi.

2. Funksional yadroni aniqlaş. Asl matnning yetakçi vazifasi va tarjima qaroriga ta'sir qiladigan yordamçi vazifalar ajratiladi.

3. Pragmatik vaziyatni tavsiflaş. Muallif va öquvçi munosabati, adresatning mavzuga doir bilimi hamda muloqot şaroiti aniqlanadi.

4. Invariantlar va xavfli örinlarni belgilaş. Tarjimada saqlanadigan ma'no va şakl xususiyatlari, yöqotiş yuz berişi mumkin bölgan birliklar yozib olinadi.

5. Tarjima yeçimlarini işlab çiqiş. Termin muqobili, izoh, sintaktik qayta quriş yoki kompensatsiya kabi usullar aniq vazifaga boğlanadi.

6. Funksional va pragmatik moslikni tekşiriş. Tarjima asliyat mazmuni, matn registri va adresat ehtiyoji bilan qiyoslanadi.

7. Yakuniy matnni şakllantiriş. Terminlar, nomlar va format bir xillaştiriladi. Nomuvofiqlik aniqlansa, u yuzaga kelgan bosqiçga qaytiladi.

Modelning işlaşini "mahalla" misolida köriş mumkin. Tarjima çet ellik öquvçi uçun möljallangan xabar bölsa, avval mahallaning aynan qaysi vazifasi xabarda yoritilgani aniqlanadi. Institut sifatidagi ma'no ustuvor bölganda asl nomga qisqa izoh qöşiş öquvçiga matnni tuşunişga yordam beradi. Matnda mahalla yaşaş hududi sifatida tilga olinsa, özini özi boşqarişga urğu berilgan izoh ortiqça ma'no yuklaşi mumkin. Tahrirda şunday tafovut aniqlansa, tarjimon törtinçi bosqiçga qaytadi va qaysi ma'no saqlanişi kerakligini qayta belgilaydi.

MUHOKAMA

Tahlilda matn turi tarjima qarorining yönalişini körsatdi. Biroq qarorning özi birlikning muayyan örinda bajargan vazifasiga boğliq. Masalan, "oq yöl"ning nutqiy vazifasini saqlaş uçun tabiiy inglizça tilak tanlanadi, "köngli toğdek kötarildi" misolida esa tarjimon hissiy özgariş bilan birga badiiy obrazning matndagi örnini ham tekşiradi. Har ikkisi badiiy matnga oid bölsa ham, birida vaziyatga mos ibora, ikkinçisida obraz va hisning nisbati asosiy masala böldi. Bu kuzatuv Reissning funksional tasnifini matn içidagi segmentlar darajasida qöllaşga asos beradi [1]. Publitsistik va ilmiy misollarda izoh qöşiş turli ehtiyojdan kelib çiqdi. "Mahalla" izohi öquvçida mavjud bölmasligi mumkin bölgan madaniy bilimni töldiradi. "Peer review" izohi esa termin bilan nomlangan jarayonni oçadi. Nord ta'kidlagan adresat va muloqot vaziyatini örganiş bu ikki holatda izohning hajmini belgilaşga yordam beradi [3]. Maqsadli öquvçi atamani allaqaçon bilsa, izohni takrorlaş matn oqimini oğirlaştiradi. Atama birinçi marta uçrasa, qisqa izoh keyingi fikrlarni tuşunişni yengillaştirişi mumkin. Yetti bosqiçli modelning amaliy tomoni tarjima variantini tekşiriş mezonlarini oldindan belgilaşida körinadi. Badiiy matnda obrazning yöqolişi sezilsa, tahrir uning matndagi vazifasini qayta tekşirişdan boşlanadi. Ilmiy matnda termin turliça berilgan bölsa, şu tuşunçaning ta'rifi va barça qöllanişlari birgalikda körib çiqiladi. Rasmiy matnda termin aniqlaştirilganda esa u iştirok etgan şart, istisno va majburiyatlar ham qiyoslanadi. Bunday tahrir House yondaşuvidagi funksiya va registrga e'tiborni tarjimon bajara oladigan aniq amallar bilan boğlaydi [5].

Natijalar dissertatsiyadan tanlangan yettita birlik va ularning tavsiya muqobillari bilan çegaralanadi. Ayniqsa, rasmiy matn böyiça bitta terminning tahlili keng turdagi hujjatlar haqida umumiy hukm çiqariş uçun tor material beradi. Modelning baholaşda qay darajada takrorlanadigan natija berişini tekşiriş uçun töliq parallel matnlar va bir neça baholovçining mustaqil xulosalari kerak böladi.

XULOSA

Qiyosiy tahlilda badiiy matnda hissiy ohang va obraz, ilmiy matnda tuşunça hamda termin izçilligi, publitsistik matnda madaniy mazmunning tuşunarliligi, rasmiy matnda esa huquqiy ma'noning kontekstga mosligi tarjima variantini tanlaşga yönaltiruvçi mezonlar sifatida ajraldi. Uşbu mezonlar qaysi birlikni öz holiça saqlaş, qaysi örinda izoh beriş va qaysi ifodani vaziyatga moslaştiriş kerakligini asoslaşga yordam beradi. Taklif etilgan modelda dastlab matnning vazifasi va tarjima topşiriği aniqlanadi. Şundan keyin saqlanişi kerak bölgan xususiyatlar belgilanib, tarjima muqobillari şu mezonlarga tayangan holda tekşiriladi. Tahrirda aniqlangan nomuvofiqlik tegişli qarorga qaytiş orqali körib çiqiladi. Şu tartib tarjima variantining nima sababdan tanlanganini va qaysi kontekstda mos kelişini izohlaş imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Reiss K. Type, Kind and Individuality of Text: Decision Making in Translation. Poetics Today. 1981. Vol. 2, No. 4. P. 121–131. DOI 10.2307/1772491.
2. Vermeer H. J. Skopos and Commission in Translational Action. In The Translation Studies Reader, ed. L. Venuti. London and New York, Routledge, 2000. P. 221–232.
3. Nord Ch. Text Analysis in Translation: Theory, Methodology, and Didactic Application of a Model for Translation-Oriented Text Analysis. 2nd ed. Amsterdam and New York, Rodopi, 2005.
4. Newmark P. A Textbook of Translation. New York, Prentice Hall, 1988.
5. House J. Translation Quality Assessment: Linguistic Description versus Social Evaluation. Meta. 2001. Vol. 46, No. 2. P. 243–257. DOI 10.7202/003141ar.
6. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, Fan, 2005. 352 b. ISBN 5-648-03160-2.
7. Tarjimada matn turlarining qiyosiy tahlili. Dissertatsiya qo'lyozmasi. 2.2 va 3.1–3.3-bo'limlar.